XALQ DEPUTATLARI KATTAQO’RG’ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 28 - oktabr VI-66-169-7-106-K/22 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Shaharda tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-283-son qarori hamda davlat rahbari raisligida joriy yilning 5-may kuni tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-283-son qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shaharda tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Tibbiyot birlashmasi (X.Xamrayev) shahar hududi bo‘ylab aholining sog‘lom turmush tarzini yanada yaxshilash va aholi orasida tibbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarning doimiy olib

borilishini ta’minlash hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari mas’ullari, patronaj hamshiralar va boshqa mutasaddilar bilan birgalikda mahallalarda “Sog‘lom ona va bola – millat tayanchi”, “Salomatlik – tuman boylik” kabi mavzularda davra suhbatlarini muntazam o‘tkazib borish vazifalari topshirilsin.

4. Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalariga shaharda tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning ijro etilishi ustidan deputatlik nazoratini o‘rnatish hamda mas’ullarning hisobotlarini eshitib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Sharipova) hamda shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi **N. Xakimov**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining
2022 yil 28 oktabrdagi
VI-66-169-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shaharda tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar

DASTURI

№	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar	Muddati	Amalga oshirilish mexanizmi	Ijro uchun mas’ul	
				Tibbiyot birlashmasidan	Shahar hokimligidan
1	Kattaqo‘rg‘on shahar Tibbiyot Birlashmasi Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida tunu-kun faoliyat ko‘rsatuvchi tez tibbiy yordam shoxobchasini tashkil etish;	2022-yil IV chorak davrida.	Amaliy chora-tadbirlarni belgilash	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.Nazarov), TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
2	2022-2025-yillarda Kattaqo‘rg‘on shahar Tibbiyot birlashmasi Tez tibbiy yordam bo‘limidagi 6 ta “Damas” va boshqa eskirgan tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini zamonaviylariga almashtirish, jumladan reanimobillar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;	Tasdiqlangan jadval asosida	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasiga mavjud eskirgan tez tibbiy yordam avtomashinalari bo‘yicha asoslangan takliflarni berish.	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov), TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
3	Tez tibbiy yordamga byudjetdan ajratilayotgan mablag‘larni ochiq-oshkora sarflash tizimini yaratish va kamida 15 foiz mablag‘larni iqtisod qilib, ularni transport parkini yangilashga yo‘naltirish choralarini ko‘rish;	Har yili	Amaliy chora-tadbirlarni belgilash	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari , TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
4	Tibbiyot birlashmasi Shoshilinch tibbiy xizmat faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, bunda: Tibbiyot birlashmasidagi terapiya, pediatriya va xirurgiya yo‘nalishida bir-birini takrorlaydigan rejali va shoshilinch bo‘limlarini birlashtirib, tunu-kun ishlaydigan shoshilinch yordam qabulxonasini tashkil etish.	2022-yil noyabr-dekabr oylar	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan kelishgan holda amaliy chora-tadbirlarni belgilash	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov),	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)

5	Tibbiyot birlashmasida tumanlararo qo‘shma shikastlanish va o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazini tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash hamda bu borada viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi va shahar hokimligiga taklif kiritish	2022-yil dekabrga qadar	Tibbiyot birlashmasida tumanlararo qo‘shma shikastlanish va o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazini tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash hamda bu borada viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi va shahar hokimligiga taklif kiritish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov),	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
6	Tibbiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan natijalarni keng yoritish maqsadida viloyat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda aholining tez tibbiy yordam xizmatidan foydalanishdagi mas’uliyati va buning ahamiyatini keng targ‘ib etuvchi lavhalarni yaratish va doimiy yoritib borish;	Doimiy ravishda.	Amaliy chora-tadbirlarni belgilash	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)
7	Tibbiyot birlashmasi rahbarining Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar kengashi sessiyalarida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti eshitilishini hamda ular tomonidan keyingi faoliyat rejalari taqdimot qilinishini tashkil etish;	2022-yil yakuniga qadar	Tahliliy hisobotlarni tayyorlash, yakuniy ma’lumotlarni Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar kengashi sessiyalarida ko‘rib chiqish uchun taqdim etish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)
8	Sog‘liqni saqlash tizimini korrupsiyadan holi qilish bo‘yicha tibbiyot xodimlari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;	Doimiy	Kengaytirilgan yig‘ilishlarda korrupsiyaga qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish hamda bo‘limlarda, ko‘rinarli joylarda korrupsiyani oldini olish borasidagi stendlar va ishonch telefonlarini joylashtirish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.P.Nazarov)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)
9	Tibbiyot birlashmasi Tez tibbiy yordam bo‘limi vrach va o‘rta tibbiyot xodimlarini viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan o‘quv seminarlariga jalb qilgan holda qayta tayyorlash choralarini ko‘rish;	2022-yil IV chorak davrida.	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan kelishgan holda aniq kunlarda o‘quv seminarlarini tashkil etish.	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, Kadrlar bo‘limi noziri	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)

10	Tibbiyot birlashmasi va Kattaqo‘rg‘on shahar Ibn-Sino nomidagi tibbiyot texnikumi bilan hamkorlikda memorandum imzolagan holda tez tibbiy yordam bo‘limida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlari tayyorlash bo‘yicha kelishuvlarga erishish;	2022 -2023 o‘quv yilida hamda hududiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda	Tibbiyot birlashmasi tomonidan har yili xodimlarga bo‘lgan ehtiyoj va talablarni o‘quv muassasasiga taqdim etish.	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, Kadrlar bo‘limi noziri	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)
11	Shifoxonalarda bo‘sh o‘rinlarni onlayn tarzda elektron axborot tizimi orqali ko‘rish imkoniyatini yaratish;	2022-2023-yillar	Mavjud elektron axborot tizimiga shifoxonadagi bo‘sh o‘rinlarini onlayn tarzda ko‘rish imkoniyatini beruvchi tizimni kiritish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliq o‘rinbosari (S.Nazarov), AKT bo‘yicha muhandis	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov)
12	Tez tibbiy yordam brigadalarini maxsus planshetlar bilan ta’minlash	2022-yil oxiriga qadar	Tez tibbiy yordam brigadalari uchun maxsus planshetlar xarid qilish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari , TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
13	Tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini GPS-trekerlar va radioaloqa vositalari o‘rnatish. Bunda, har bir avtomashinaning yoqilg‘i sarfi, bosib o‘tgan masofasi va uning joylashuvini onlayn rejimda nazorat qilishni nazarda tutish.	2022-2023-yillar	Tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini GPS-trekerlar va radioaloqa vositalari bilan ta’minlash	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari , TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)
14	Tez Tibbiy yordam bo‘limi binosi hamda avtogarajni zamon talablari asosi kapital ta’mirlash, dispetcherlik xonalarini zamon talablari asosida jihozlash, telefon aloqa tizimi hamda qisqa “103” aloqa tizimini takomillashtirish, yuqori tezlikdagi internet xizmatini ta’minlash.	2022-yil oxiriga qadar.	Ajratiladigan byudjet mablag‘lari asosida zamon talablari asosida sifatli ta’mirlash ishlarini olib borish	Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (X.X.Xamrayev), Boshliqning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari , TTYO bo‘limi mudiri (O‘.Qo‘ldoshev)	Shahar hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (F.Sadriddinov)